

DINDA OILA MUQADDAS, TARBIYADA FARZAND OMONAT

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 2 kurs pedagogika

yo'nalishi talabasi Omonullayeva Gulzoda

muniradavlatova777@gmail.com

***Anotatsiya:** Ushbu maqolada islom dinida oilaning tutgan o'rni va uning muqaddasligi, shuningdek, farzand tarbiyasining ilohiy omonat sifatida baholanishi haqida so'z yuritiladi. Oila jamiyatning tayanchi, inson kamolotining ilk maktabi sifatida e'tirof etiladi. Dinimizda har bir ota onaga farzandni Alloh tomonidan berilgan omonat sifatida qabul qilish, uni ma'naviy yetuk, axloqan pok, iymonli inson qilib voyaga yetkazish buyuriladi. Ushbu mavzuda Qur'on oyatlari, hadisi shariflar va ulug' allomalarimizning pand-nasihatlariga tayanilgan holda, sog'lom oila muhitining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni yoritib beriladi. Asarda tarbiya mas'uliyati, mehr-oqibat, sabr, halollik kabi fazilatlarning oila hayotidagi ahamiyati chuqur tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** Din, oila, farzand, ta'lim, tarbiya, ustoz, ora-ona, ijtimoiylashuv, yoshlar, maktab, oila instituti, xulq, mehr-oqibat, ishonch.*

***Аннотация:** В данной статье рассматривается роль матери в религии ислама и её святость, а также оценка воспитания ребёнка как божественного дара. Семья признаётся основой общества, первой школой человеческого совершенства. В нашей религии каждому родителю предписано принимать ребёнка как дар, дарованный Богом, воспитывать его духовно зрелым, нравственно чистым и верующим человеком. Основываясь на аятах Корана, хадисах и советах наших великих учёных, данная статья проливает свет на роль здоровой семейной среды в развитии общества. В работе глубоко анализируется*

важность таких качеств в семейной жизни, как ответственность за воспитание, доброта, терпение и честность.

***Ключевые слова:** Религия, семья, ребенок, образование, воспитание, учитель, среда, социализация, молодежь, школа, институт семьи, поведение, доброта, доверие.*

***Abstract:** This article discusses the role of the mother in the religion of Islam and its sanctity, as well as the assessment of child upbringing as a divine trust. The family is recognized as the foundation of society, the first school of human perfection. In our religion, every parent is commanded to accept the child as a trust given by God, to raise him or her as a spiritually mature, morally pure, and believing person. Based on the verses of the Quran, hadiths, and the advice of our great scholars, this article sheds light on the role of a healthy family environment in the development of society. The work deeply analyzes the importance of such qualities in family life as responsibility for upbringing, kindness, patience, and honesty.*

***Keywords:** Religion, family, child, education, upbringing, teacher, environment, socialization, youth, school, family institution, behavior, kindness, trust.*

Kirish: Oila– inson hayotidagi eng muqaddas va eng mas'uliyatli muassasalardan biridir. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari o'z asarlarida oilaning diniy va axloqiy poydevorini mustahkamlash orqali jamiyatda tinchlik, baraka va mehr-oqibat hukm surishini ta'kidlaganlar. "Baxtiyor oila" va "Ijtimoiy odoblar" asarlarida oiladagi har bir a'zoning o'zaro hurmat, sabr-toqat, halollik va mas'uliyat asosida yashashi zarurligi qayd etilgan. Ushbu kitob Islom dinining oilaviy munosabatlarga oid ahkomlarining keng va batafsil sharhi bo'lib, musulmon kishi oilaviy hayotga oid bilishi lozim bo'lgan barcha masalalarni o'z ichiga oladi. Kitobda insonga ikki dunyo saodati yo'lini ko'rsatib bergan Islom dinining baxtli, saodatli oila qurish, er-xotinning huquqlari, burch va majburiyatlari, ota-onaga, qaynota-

qaynonaga munosabat, kelin va kuyov tanlash, aqiyqa, farzand tarbiyasi, silai rahm, taloq, idda va shu kabi ko'plab dolzarb mavzulardagi ta'limotlari orqali bugungi kunda qator muammolar muhokama qilinadi, oyatlar, hadislar hamda salaf solihlarning hayoti misolida musulmonning baxtli oilaviy hayot dasturi ko'rsatib beriladi.

Farzand — omonat va amanat Shayx hazratlari farzandni Alloh tomonidan berilgan omonat deya ko'rishni ta'kidlaydi. Ular ota-ona oldida katta mas'uliyat borligini, har bir bola tug'ilganda ma'naviy hamda axloqiy jihatdan toza tabiat bilan yaratilishini aytadi. Ota-ona farzandning moddiy ta'minoti bilan bir qatorda uning ruhiy-axloqiy tarbiyasiga ham alohida e'tibor qaratishi lozim.

Tarbiya faqat o'quv-maktabdagi fan emas, balki oilaning ichida shakllanadigan axloqiy, diniy odatlar orqali rivojlanadi. Kitobda oiladagi mehr-oqibat, hurmat, sabr-toqat masalalari ko'plab tilga olinadi. Farzand ota-ona so'z-xatti, iymonli va axloqli hayot misoliga qarab o'sadi — ya'ni tarbiya “so'z bilan”gina emas, “hayot tarzlash bilan” ham birga boradi.

Shayx hazratlari tarbiya jarayonida axloqiy qadriyatlar va iymon muhimligini urg'ulaydi: farzandni halollik, odob-axloq, vijdonlilik, hurmat-ehtirom kabi fazilatlar bilan voyaga yetkazish lozim. Tarbiya shunchaki “yaxshi odatlar”ga ega bo'lish emas, balki insonning ichki olami — iymon, axloq, shuningdek jamiyat bilan munosabatlari — shakllanishiga ham xizmat qiladi.

Oila muhitida tarbiyalangan bola — shunchaki uyda yaxshi o'sgan emas, balki jamoat hayotida, muhitda yaxshi xulqli, mas'uliyatli va ijtimoiy jihatdan foydali shaxs bo'lishi kerak. Asarda bu jihatga ham e'tibor berilgan. Tarbiya jamiyat talablari bilan hamohang bo'lishi lozim — ya'ni bugungi kunda o'zgarayotgan jamiyat sharoitida farzandni nafaqat diniy va axloqiy jihatdan, balki zamonaviy muhitga tayyorlash zarur.

Abdulla Avloniy esa "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida tarbiyani millatning hayot-mamot masalasi deb biladi. Uning fikricha, har bir farzand axloqiy jihatdan komil inson bo'lib voyaga yetishi uchun oilada yetarli e'tibor, mehr va sabr bo'lishi shart. Bu esa ota-onaning og'ir, ammo sharafli burchidir.

Avloniy eng mashhur fikrlaridan birida shunday deydi: "Tarbiya biz uchun yoki najot, yoki halokat, yoki saodat, yoki falokat masalasidir." Bu fikr orqali u tarbiyani oddiy ma'naviy masala emas, balki butun jamiyat va millatning taqdiri bilan bog'laydi.

Avloniy bolani tug'ma yomon emas, balki tarbiya ta'sirida yaxshi yoki yomon bo'lishi mumkin bo'lgan pokiza tabiatli mavjudot deb biladi. U shunday yozadi: "Har bir bola xuddi bir sof oynaga o'xshaydi, unga nima ko'rsatilsa, o'shani aks ettiradi." Shuning uchun ota-onalar, ustozlar va muhit katta ahamiyat kasb etadi.

Asarda axloq, odob, halollik, rostgo'ylik, to'g'rilik kabi fazilatlar tarbiyaning markaziy elementi sifatida ko'riladi. Avloniy axloqsiz bilimni xavfli deb hisoblaydi. "Axloqsiz ilm– jamiyat uchun ofatdir", deya ogohlantiradi.

Avloniy tarbiyani faqat bilim berish emas, balki insonning qalbini tarbiyalash, unga ezgulikni singdirish deb tushuntiradi. Uning fikricha, yaxshi insonlar jamiyatga foydali, yomon tarbiyalanganlar esa jamiyatga zarar yetkazadi.

Asarda musulmon qadriyatlari, hadislardan misollar, Qur'oniy hikmatlar orqali farzand tarbiyasining diniy asoslari ham ochib beriladi. Tarbiya– bu Alloh oldidagi mas'uliyat deb tushuniladi.

Avloniy ustoz shaxsini tarbiyaning kaliti deb biladi. U shunday deydi: "Maktab– ma'rifat chirog'i, ustoz– qalb mehri manbai." Farzand tarbiyasida yaxshi ustozlar, saviyali ta'lim tizimi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Globallashuv, begona g'oyalarning kirib kelishi fonida, milliy va diniy qadriyatlarni himoya qilish zarurati doimo dolzarb masala sifatida ko'rsatilgan.

Xulosa qilib aytganda, bu asar orqali muallif xalqimizni yuksak ma'naviyatga, chuqur tarbiyaviy va diniy ong asosida yashashga da'vat etadi. Chunki ma'naviyatli inson — kuchli inson, ma'naviyatli jamiyat esa — yengilmas jamiyatdir. Eng asosiysi, Qur'oni karim oyatlarida oila va farzand tarbiyasi bo'yicha berilgan ko'rsatmalar Allohning buyruqlari sifatida e'tirof etilib, har bir musulmon ota-ona uchun yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi. Farzandlar Allohning berilgan ne'mati va omonati bo'lib, ularni sog'lom e'tiqod, pok axloq va foydali bilimlar asosida tarbiyalash har bir mo'min uchun mas'uliyatdir. Qur'oni karimda tarbiya masalasiga nihoyatda katta ahamiyat berilgan. Alloh taolo farzandlarni inson uchun sinov va ne'mat sifatida ta'riflab, ularni iymonli, axloqli, pokiza inson qilib tarbiyalashni ota onalarning muqaddas burchi deb bildiradi. Har bir mo'min o'zini va oilasini yomonliklardan saqlashi, bolalariga diniy va axloqiy saboqlar berib, ularni ezgu yo'lga boshlashi lozimligi oyatlarda aniq bayon etilgan.

Luqmon surasida keltirilgan ota nasihatlarida esa Qur'oni tarbiyaning yorqin namunasi bo'lib, bunda Allohga shirk keltirmaslik, namoz o'qish, sabrli bo'lish, odob va kamtarlikka urg'u berilgan. Qur'on farzand tarbiyasini nafaqat oilaviy, balki ijtimoiy va umummilliy masala sifatida ko'radi. Zero, jamiyat islohoti — avvalo inson tarbiyasidan boshlanadi. Shunday ekan, Qur'oni karimning ko'rsatmalariga asoslangan tarbiya— bu inson qalbini nur bilan to'ldiruvchi, jamiyatni ezgulik sari yetaklovchi muqaddas yo'ldir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shayx Muxammad Sodiq Muxammad Yusuf " Baxtiyor oila"
2. Shayx Muxammad Sodiq Muxammad Yusufning " Ijtimoiy odoblar"
3. Abdulla Avloniy " Turkiy Guliston yoxud axloq"
4. Islom Karimov " Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch